

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI HUQUQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Raupova Munira Murodovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Gmail: mmraraupova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada ta’limdagi islohotlar asosida jamyaitda bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy kompetentligini rivojlantirishning dolzarbliji va ahamiyati huquqiy komptetentlik tushunchasining tasniflari asosida yoritib berilgan. Bundan tashqari maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda metodologik yondashuv va tamoyillarning bo‘lajak o‘qituvchini jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-huquqiy o‘zgarishlarda faol fuqarolik pozitsiyasida ijtimoiy mavqe yuzasidan ijtimoiy faolligini ta’minlashga xizmat qiluvchi xususiyatlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so`zlar: ustoz-shogird, milliy qadriyat, ijtimoiylashuv, huquqiy ijtimoiylashuv, kompetensiya, huquqiy kompetensiya, kompetentlik, yondashuv, tizimli-jarayonli, aksiologik-refleksiv, shaxsiy-faoliyatga, kompetensiyaga, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar, tamoyil.

Аннотация

Актуальность и важность развития правоспособности будущих педагогов в обществе на основе реформ в сфере образования раскрывается в статье на основе классификации понятия правосубъектности. Кроме того, в статье рассмотрен методологический подход к развитию правоспособности будущих учителей и характеристика принципов, служащих обеспечению социальной активности будущего учителя в социальной позиции активного гражданина в социально-правовой сфере. изменения, происходящие в обществе.

Ключевые слова: учитель-наставник, национальная ценность, социализация, правовая социализация, компетенция, правовая компетентность, компетентность, подход, системно-процессуальный, ценностно-рефлексивный, личностно-деятельностный, компетентностный, личностно-ориентированные подходы, принцип.

Annotation

The relevance and importance of developing the legal competence of future teachers in the society based on the reforms in education is explained in the article

based on the classifications of the concept of legal competence. In addition, in the article, the methodological approach to the development of the legal competence of future teachers and the characteristics of the principles that serve to ensure the social activity of the future teacher in the social position of the active citizen in the social and legal changes taking place in the society. raised

Keys words: teacher-student, national value, socialization, legal socialization, competence, legal competence, competence, approach, systemic-processual, axiological-reflexive, personal-activity, competence, person-oriented approaches, principle.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish jarayonlarida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida ustuvorlik berilayotgani milliy qadriyat sifatida ustoz-shogird an’analarining mustahkam huquqiy asosi o‘qituvchi maqomini, Konstitutsiya darajasida, “O‘zbekiston Respublikasi o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy faravonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”[1] 52-modda bilan belgilanishi, o‘qituvchining kasbiy faoliyati daxlsizligini huquqiy ijtimoiylashtirishga asos bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, shaxsning jamiyat bilan barqaror ijtimoiy va huquqiy munosabatlarini shakllantirish uchun uning huquqiy ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan ma’lum maqsadni belgilaydi, chunki turli xil ta’sir obyektlari tufayli shaxsning o‘zi u yoki bu o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Shu munosabat bilan, uning shaxsiy o‘ziga xosligi huquqiy normalarni qo’llash jarayonida moslashish va himoya qilishni amalga oshirishi zarurdir. Demak, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uning hayotidagi ijtimoiy strategiyaga aylanishi hamda ijtimoiy-huquqiy rivojlanishining omili sifatida shaxsning huquqiy kompetentligi oshirish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Pedagogika fanida huquqiy kompetensiya atamasi uning adolat tuyg‘usi darajasi va axloqiy huquqiy normalarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Huquqiy nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy kompetensiyada asosiy e’tibor huquqiy tarbiya va o‘qituvchining huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Birinchidan, “kompetentlik” atamasi bir so‘z “bilim, ko‘nikma, qobiliyat”ning an’anaviy uchligini ifodalash bilan bir qatorda uning tarkibiy qismlarini birlashtirib, uzlusizlik vazifasini ham bajaradi.

V.V Zaxarovning ta’rifga ko‘ra, “Keng ma’noda kompetensiya - bu mavzu bo‘yicha chuqur bilim yoki o‘zlashtirilgan mahoratdir”. Lekin pedagogika fani uchun eng muhim narsa bu tushunchadir. Kompetensiya ko‘p qirrali bilimlarni

mustaqil idrok etish orqali shakllanadi[5, б. 192]. S.I. Ojegovaning izohli lug‘atida, "kompetentlik" so‘zi quyidagicha izohlanadi: 1) xabardorlik; 2) qaysidir sohada kompetensiya sifatida obro‘li; 3) bir qator masalalar va hodisalarda, ma’lum bilimlarga ega bo‘lish; 4) shaxsning huquq va vakolatlari. Shu munosabat bilan ba’zi tadqiqotchilar kompetensiya va kompetentlik atamalarini pedagogik nuqtai nazardan sinonimlar[6, б.255-256] deb hisoblashadi.

"Xorijiy so‘zlar va iboralarning eng yangi lug‘ati"da kompetensiya "biror narsani hukm qilish uchun bilim va tajribaga ega bo‘lish; kuchli obro‘li fikr" deb talqin qilinadi. Zamoniyy "Sotsiologik ensiklopediya"da ushbu tushunchaga quyidagi ta’rif taklif qilingan[12, с.461]: "kompetentlik (lotincha competere - erishish, riosa qilish, yondashish) - rahbar, jamoat arbobi, hokimiyatning shaxsiy fazilatlari, shu jumladan yuqori professionallik, odamlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini, u harakat qiladigan vaziyatni bilish, ijtimoiy munosabatlar tizimini, ijtimoiy institutlarning o‘zaro ta’sirini tahlil qilish, muayyan harakatlar oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish, ijtimoiy-psixologik - shaxsning samarali harakat qilish qobiliyati, shaxslararo munosabatlarda tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish jamoa faoliyati"dir.

Huquqiy kompetensiya - bu bilimlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar, shaxsiy munosabatlar va xulq-atvor usullari birlikda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy harakatning murakkab xarakteristikasi[12]. Hozirgi vaqtida huquqiy kompetensianing mohiyatini tushunishga turlicha yondashuvlar mavjud. N.I. Igolevichning so‘zlariga ko‘ra, “huquqiy kompetensiya deganda shaxsning huquqiy sohada ijtimoiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradigan bunday bilim, ko‘nikma, munosabat, shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar majmui tushunilishi kerak”[12]. A.V. Karevaning fikriga ko‘ra, “Huquqiy kompetensiya mutaxassisni kasbiy tayyorlashning tarkibiy qismi bo‘lib, umumi kompetensiyasining maqsadi sifatida u huquqiy bilim va ko‘nikmalarni nazariy asos va umuman mutaxassisning huquqiy tarkibiy qismi sifatida shakllantirishni o‘z ichiga oladi”[12].

Huquqiy ijtimoiylashuv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishga yordam beradigan muayyan huquqiy bilimlarni oladi. Biroq mavjud huquqiy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, o‘qituvchi tomonidan huquqiy meyorlarga riosa qilish yoki riosa qilmaslik uning ushbu meyorlarga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Shu munosabat bilan, huquqiy kompetentlikning rivojlanishi bilan bo‘lajak o‘qituvchining huquqiy ijtimoiylashuvi huquq subyekti sifatida xatti-harakatlarini tartibga soluvchi tegishli ijtimoiy-huquqiy me’rlar va qoidalar ta’lim jarayonida huquqiy ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish

asosida olib boriladi. Demak, ijtimoiy-huquqiy kompetensiya huquqiy ongga asoslanadi.

Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy fanda huquqiy ongni o'rghanishda bir qancha yondashuvlar ajralib turadi. L.I. Bojovich, V.B.Golitsin, L.M.Zyubin, K.E.Igoshev, I.S.Kon, V.N.Kudryavsevlarning asarlarida huquqiy ongning pedagogik va psixologik muammolari haqida fikrlar keltirilgan, S.S.Alikseyev, L.S.Yavich va boshqlar esa, huquqiy ongni barcha huquqiy voqeylekning ma'naviy aks ettirish sohasi sifatida belgilashmoqda[8,s.27], V.I.Kaminskaya, A.R.Ratinovlar huquqiy ongni axloq normalarini, xattiharakatlarning qonuniy ichki tartibga soluvchisi sifatida qaraganlar[7,s.57].

N.L. Granat o'zining "Huquqiy ong" asarida huquqiy ongga quyidagicha ta'rif beradi: "Huquqiy ong-bu ideal hodisadir, to'g'ridan-to'g'ri ko'zga tashlanmaydigan, huquqiy voqelikni aks ettiruvchi, huquqiy bilimni va uni amalga oshirish amaliyotiga huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi ong doirasasi va sohasini anglatadi. Ijtimoiy huquqiy munosabat va huquqiy ahamiyatli vaziyatlarda xattiharakatlarni (odamlar faoliyati) tartibga soluvchi qiymat yo'nalishdir" [10,s.57].

Pedagogning huquqiy kompetensiyasi - pedagogik faoliyatda qonunchilik va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlardan samarali foydalanishni ta'minlovchi o'qituvchi harakatlarining sifati; mahalliy normativ-huquqiy hujjatlarni kasbiy sohasida qo'llashni bilishi; mavjud qonunchilik bazasi doirasida o'z kasbiy huquq va majburiyatlarini angalshi [5].

Ilmiy adabiyotlarda o'qituvchining huquqiy kompetensiyasi deganda "...o'qituvchining o'z faoliyatida tegishli kasbiy vazifalarni hal qilishda vakolatlari organlarning qonunchilik va meyoriy-huquqiy hujjatlaridan foydalanish qobiliyatini belgilaydigan kasbiy xususiyat professional darajalar " tushuniladi.." Bunday kompetensianing asosi "huquqni bilish va tushunish tizimi, shuningdek, ularga muvofiq harakatlardir". Demak, huquqiy kompetentlik shaxs tomonidan huquqiy qadriyatlarni tan olish va shu asosda uning tegishli ijtimoiy-huquqiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida olingan huquqiy bilim va ko'nikmalarni qo'llashga tayyorligini rivojlantirishga qo'yilgan maqsadga erishishdir. Bu maqsadga erishishning muhim vositalaridan biri metodologik yondashuvlar bilan bog'liq. Metodologik yondashuv - muammolarni ko'rib chiqishning ma'lum bir tomoni bilan tavsiflangan bilimlar, usullar, tadqiqotning konseptual va uslubiy bazasi tizimi hisoblanadi. Bitta uslubiy yondashuv doirasida taddiqot uchun bir xil kotsseptual asosga ega bo'lgan bir qancha turli nazariyalar, qarashlar, qoidalar bo'lishi mumkin[12].

Shu nuqtai nazardan, metodologiyaning faoliyat ta'rifi 1983 yil nashri falsafiy ensiklopedik lug'atda berilgan. Ushbu ta'rif metodologiyani nazariy va amaliy

faoliyatni tashkil etish va qurish tamoyillari va usullari tizimi, shuningdek, ushbu tizim haqidagi ta'limot sifatida izohlaydi. Shunday qilib, o‘z navbatida, metodologiyani tushunishda turli xil uslubiy yondashuvlar mavjud: 1) uni faqat nazariy pozitsiyalarini aniqlash; 2) uning nazariy va amaliy-samarali mohiyatining birligini hisobga olgan holda belgilash.

N.Yakovlevining nuqtai nazarini qo‘llab-quvvatlagan holda shuni aytish mumkinki, yondashuv metoddan o‘zining quyidagi jihatlari bilan farqlanadi: 1) yondashuv ko‘proq umumiy va kamroq aniqlikka ega; 2) u o‘zida ko‘proq formal nazariya va konsepsiylar, umumiy tamoyillar va yo‘nalishlarni ifoda etadi; 3) har bir yondashuvga bir emas, bir qancha metodlar muvofiq kelishi mumkin[9, s.371].

“Yondashuv” tushunchasini umume’tirof etilgan mohiyatida kimgadir ta’sir ko‘rsatish, nimanidar o‘rganish uchun foydalaniladigan yo‘l, usullar yig‘indisi o‘z ifodasini topadi. Tadqiqotga doir yondashuv tadqiqotchining asosiy tamoyili, nuqtai nazarini ifoda etadi[4, s.574].

Bo‘lajak o‘qituvchilarini huquqiy kompetentligini rivojlantirishning samarali yondashuvlari sifatida quyidagilarlar tanlandi:

-tizimli-jarayonli yondashuv tadqiqotning umumiy asosi sifatida ilmiy izlanish mantig‘ini aks ettiruvchi muammoni qo‘yish, asosiy va lokal maqsadlarni aniqlashtirish, qarama-qarshi fikrlar va nuqtai nazarlarni aniqlashtiruvchi qoidalar bilan tavsiflanadi hamda talabalarni huquqiy ijtimoiylashtirishning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqishni ta’minlaydi;

-aksiologik-refleksiv yondashuvlar nazariy-metodologik asos sifatida nazariy tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlab beradi, uning umumiy ko‘rinishini aks ettiradi. Ijtimoiy va huquqiy qadriyatlarni, huquqiy munosabatlarni va huquqiy yo‘nalishlarni ustuvor yo‘nalish sifatida taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Talabalar huquqiy qadriyatlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari va huquqiy munosabatlarni rivojlantirishlari uchun oliy ta’lim muassasasi va o‘qituvchilar faoliyati ana shu qadriyatlarni va qonuniylik asosida tartibga solinishi, ta’lim jarayonining barcha subyektlari ijtimoiy va huquqiy qadriyatlarga amal qilishi, "boshqaga", huquq normalariga va hokazolarga hurmat ko‘rsatishni ta’minlashga imkon beradi.

-shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv faoliyat toifasi nuqtai nazaridan ilmiy ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan turli xil mavzularni tavsiflash, tushuntirish va loyihalashni o‘z ichiga olgan tadqiqotning uslubiy yo‘nalish sifatida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun professor-o‘qituvchi va talabalar faoliyatini tashkil etish mexanizmi va tartib-qoidalarini aniqlash, o‘rganilayotgan hodisadan amaliy foydalanishning o‘ziga xosliklarini ochib berishni amaliy-yo‘naltirilgan taktikasi sifatida namoyon bo‘ladi.

-kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida pedagogik jarayonlarni qurish haqidagi g‘oyalar ishlab chiqiladi, bu ta’limning amaliy yo‘nalishini kuchaytiradi, ta’lim natijasining operativ, mahoratli tomoniga e’tibor beradi hamda ta’lim jarayonini tashkil etish, mazmuni, natijalarini jamiyat ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish, shaxsga samarali o‘zaro munosabatda bo‘lishga imkon beradigan vakolatlarning tegishli tarkibini aniqlash va asoslash orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashni ta’minlaydi.

-shaxsga-yo‘naltirilgan yondashuv: insonning dunyodagi o‘rni o‘zgarib bormoqda, asta-sekin “jamiyat ehtiyojlari uchun yo‘naltirilgan inson” modelining o‘rnini “hamma narsa inson uchun” tamoyili egallab boradi. Ta’lim sohasidagi asosiy sa’y-harakatlar shaxsning muvaffaqiyatga erishishi va o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi talabaning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda namoyon bo‘ladi, bu yerda birinchi yondashuv maqsad, ikkinchisi – bu jarayonga erishish vositasidir.

Har bir metodologik yondashuv qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishga imkon beruvchi ma’lum bir tamoyillar tizimi bilan bog‘liq. Tamoyil deganda pedagogik modellar, tizim kabilarni ishlab chiqish jarayoniga qo‘yiladigan talablar, boshlang‘ich qoidalar tushuniladi. Tamoyillar tadqiq etilayotgan yo‘nalishni shakllantirishga doir obyektiv talablarni aks ettiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarini huquqiy kompetentligini rivojlantirish doirasida ko‘rib chiqilayotgan metodologik yondashuvlarning tamoyillari talabalarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish tizimini yaxlit hamda qismlar (komponentlar) yig‘indisi sifatida tahlil etish ehtiyojini beruvchi yaxlitlik tamoyilidir. Mazkur tamoyil tizim haqidagi yaxlit tasvvurlarni saqlab qolgan holda tahlil etishga, tizimning “ichki tuzilishiga nazar solish”ga yo‘naltirilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarini huquqiy kompetentligini rivojlantirish modeli o‘zaro aloqador blok va elementlar yig‘indisi sifatida ta’lim oluvchining alohida xatti-harakatiga munosabatini ko‘rish, hamda uni yaxlit olamning bir qismi sifatida alohida voqelikni idrok etishga o‘rgatishga imkon beradi.

Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari tadqiqot jarayonida quyidagicha o‘z aksini topdi:

-shaxsda shaxsiy va ijtimoiy qadryatlar tizimini rivojlantirishni talab etuvchi kasbiy va huquqiy omillarni integratsiyalash tamoyli. Mazukr tamoyil asosida bo‘lajak o‘qituvchilarining ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarni, kasbiy va huquqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, ular o‘rtasidagi yaxlitlikni ta’minlashni talab etadi;

-ijtimoiy faollik tamoyili. Mazkur tamoyil bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi, sababi jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-huquqiy o‘zgarishlarda faol fuqarolik pozitsiyasida ijtimoiy mavqe yuzasidan ijtimoiy faol bo‘lishni talab etadi. Mazkur o‘zgarishlar, bo‘lajak o‘qituvchi davlatning huquqiy siyosatining faol ishtirokchisi sifatida jamiyat ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishda, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining huquqlariga qat’iy rioya qilishi, ularning manfaatlarini himoya qilishi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini tushunishi, huquqiy munosabatlarda ishtirok etishning ijobiy tajribasini o‘zlashtirib olishlari, qonuniy xulq-atvorning shaxsiy ma’nosini anglab yetishlari, ijtimoiy ahamiyatga ega huquqiy bilim va ko‘nikmalarni egallashlari kerak bo‘ladi.

Refleksiv yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagicha tavsiflandi:

-o‘z-o‘zini anglash tamoyili. Shu tamoyil talabalarning mustaqil shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvi, jamiyat va davlat tomonidan belgilangan meyorlar bilan o‘zining ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatlarini o‘zaro mosligini anglash, mustaqil ijodiy va yaratuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, shaxsiy va kasbiy qadriyatlar tizimini interiorizatsiyalash imkonini beradi;

-o‘z-o‘zini namoyon etish tamoyili. Axloq meyorlari doirsaida o‘zining axloqiy nuqtai nazarini asoslaosh, hayot faoliyati xavfsizligi sohasida ijtimoiy meyorlarga rivoya qilishda tashabbuskorlik ko‘rsatish, o‘z-o‘zini namoyon etish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o‘z-o‘zini mustaqil namoyon etish imkoniyati yuzaga keladi;

-o‘z-o‘zini nazorat qilish tamaoyili. ushbu tamoyil bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘z xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish, asoslash va umumlashtirish, huquqiy bilimlarni o‘zlashtirishning muhimligi, jamiyatning huquqiy meyorlar talablarini ta’minlashda, huquqiy bilim va huququqiy qadriyatlarni kasbiy faoliyatga tatbiq etishni talab etadi; bu esa o‘z-o‘zidan talabalarning bilish faolligini oshiradi, faol va mustaqil fikrlashga undaydi.

Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, modeldagи shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanishni talab etadi:

-hamkorlik tamoyil. Umumiу nuqtai nazardan bu tamoyil ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning teng huquqli hamkor sifatidagi faoliyatini tashkil etib, ta’lim jarayonida o‘qituvchini dialog va fikrlar almashinuvi uchun sharoit yaratib beruvchi tajribali ustoz sifatida namoyon etadi;

-subyektivlik tamoyili. Mazkur tamoyil bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil ravishda huquqiy bilim, huquqiy qadriyat va huquqiy meyorlarga doir bilim va tajribani egallashi, kasbiy faoliyat jarayonida ijtimoiy-huquqiy meyor talablarini

bajarilishiga roya qilish masalalariga doir shaxsiy va kasbiy pozitsiyaga ega bo‘lishni talab etadi;

-mustaqillik tamoyili. Talabalarning mustaqil ravishda aniq maqsad asosida huquqiy ma’lumotlarni izlash, ularni tahlil etish va baholash, shuningdek, huquqiy qadriyatlarni, baholarni, meyorlarni, namunalarni, xulq-atvor qoidalarini baholash malakasini egallashni taqozo etadi. Kasbiy faoliyatda shaxslararo o‘zaro ta’sir doirasida hulq-atvor meyorlariga rioya qilish, kasbiy faoliyat sohasida, jamiyatda, turli ijtimoiy institatlarga xos muloqotga oid muammolar va ularni ijtimoiy meyorlar asosida hal etish kompetentligiga ega ekanligini namoyish qilish talab etiladi.

Xulosa. Mazkur vazifalarni amalga oshirish nafaqat ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishga, balki har bir talaba shaxsida kasbiy va huquqiy qadriyatlarni qaror toptirish yo‘llarini izlab topishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-O‘zbekiston, 2023.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y., 06/19/5618/2452-son.
4. Анисимов В.В. Общие основы педагогики. – М.: Просвещение, 2006. – 574 с.[электрон ресурс]
- 5.Зимняя, И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании [Текст] / И. А. Зимняя. – М. : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. .[электрон ресурс]
- 5.Захаров В.В. К вопросу о подготовке учителей права. Материалы Всероссийской научно-практической конференции. Москва, 2002: 192 – 194 [электрон ресурс]
- 6.Озхегов С.И. Словарь русского языка. Москва, 1981: 255 – 256 с.[электрон ресурс]
7. Каминская, В.И. Правосознание как элемент правовой культуры/ В.И. Каминская, А.Р. Ратинов// Правовая культура и вопросы правового воспитания. М., 1974. - 57с .[электрон ресурс]
- 8.Хамраев А.А. Формирование правовой культуры личности /Теория и практика.: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. - Т.: 1993.- 27 с.

9.Яковлев Е.В. Педагогическое исследование: содержание и представление результатов. – Челябинск: Изд-во РБИУ, 2010. – 317 с. [электрон ресурс]

10.Грант Н.Л.и др. Общетеория право и государства. Учебник.2-е першр.и доп.М.:Юристъ.1996.-57 с .[электрон ресурс]

11.Социологическая энциклопедия /Рук. науч. проекта Г.Ю. Семигин. Т. 1. С. 461.[электрон ресурс]

12.<http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm>. - В надзаг: Центр дистанционного образования "Эйдос", e-mail: list@eidos.ru

